

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MENEJMENT
UNIVERSITETI TALABASI

Shukurullayeva Marjona Azadovna
Surdopedagogika haqida tushuncha

Annotatsiya: Maqola surdopedagogika fani haqida ma'lumotlar keng yoritib berilgan. Maqola orqali kar va zaif eshituvchi bolalar haqida bilib olishimiz mumkin. Ularni atrof muhitga tayyorlash va maslashtirish kerakligi va bunda bizning hissamiz katta ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar. Surdopedagogika, kar yoki zaif eshituvchi bolalar, defekta logiya, psixologik rivojlanish, og'zaki nutq, otolaringologiya, akustika, logopediya, umumiyy pedagogika, tilshunoslik, psixologiya, fiziologiya, L.S.Vigotskiy, R.M.Boskis,

Surdopedagogika (lot. surdus kar va pedagogika) – defekta logiya tarmog'i; kar yoki zaif eshituvchi bolalarni maxsus o'qitish va tarbiyalash masalalarini ishlab chiqadi. Surdopedagogikaga kar yoki zaif eshituvchi bolalarni o'qitish nazariyasi tarixi, kar va zaif eshituvchi bolalarning psixologik rivojlanish, o'quv fanlarini o'qitish, talaffuzni o'rgatish va „lab bilan o'qish“, mehnatga o'rgatish, tarbiyaviy ishlar metodikalari kiradi. Surdopedagogika kar yoki zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o'rganib, maxsus o'quv tarbiya jarayoni tuzilishining asoslarini, maxsus o'quv tarbiya muassasalarini tashkil etish tarkiblarini ishlab chiqadi. Fan asoslarini o'rganish bilan zaif eshituvchi bolalarda og'zaki nutq shakllanib boradi. Zaif eshituvchilarga og'zaki nutqni o'rgatish uchun so'zlar talaffuz qilinganda nutq organlarining harakati ko'rsatiladi. Shu harakatlarga qarab zaif eshituvchilar tovush va so'zlarni ajratib olishga, ya'ni „labga qarab o'qishga“ o'rganadi. Nutq harakatlarini takrorlashga o'rgangan zaif eshituvchilar gapirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, karlar maxsus o'quv alifbosi – daktiologiyadan foydalanib gapirishlari ham mumkin. Surdopedagogika otolaringologiya, akustika, logopediya, umumiyy pedagogika, tilshunoslik, psixologiya, fiziologiya bilan uzviy bog'liq.

Bola shahsining shakllanish jarayoni insoniyatning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Odam shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichda o'tadi va har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog'liq bo'ladi. Yoshi kattalashgan sari bolaning psixik faoliyati boyib boradi, uning sensor, aqliy, hissiy, irodaviy xususiyatlari orasidagi o'zaro aloqa o'zgaradi, bu esa rivojlanishning umumiyy darajasiga, xulq atvorning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. (V.I.Loginova, P.G.Samorukova, P.Yusupova).

Risoladagidek eshitadigan bolaning psixik rivojlanish qonuniyatlarini o'rganilishi, eshitishda nuqsoni bo'lган bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni samarali tashkil etish, ta'lim-tarbiya texnologiyalarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

L.S.Vigotskiyning "Eng yaqin rivojlanish zonalari", eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lган bolalar psixik rivojlanishining umumiyy qonuniyatları mavjudligi haqidagi

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

nazariyalari katta ahamiyatga egadir. L.S.Vigotskiy psixologik va pedagogik nuqtai nazardan eshitmaydigan bolalarga nisbatan xuddi normal eshitadigan bolalarga qaragandek munosabatda bo'lish kerakligini e'tirof etgan. Eshitadigan bola hayotining dastlabki yetti yillik o'sish davrida psixik rivojlanishida kuzatilgan xususiyatlar, eshitishining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyalarni aniqlashga yordam beradi. Dastlabki yetti yil mobaynida bola rivojlanishning uch asosiy bosqichini, ya'ni, go'daklik, ilk va maktabgacha davrlarni boshdan kechiradi. Har bir davr o'zicha muhim ahamiyatga ega bo'ladi, zero mazkur davr bosqichlarida yaratilgan shart-sharoitlar takrorlanmaydi. Ilk va maktabgacha davrda bolaning o'sish va rivojlanish sur'atlari juda yuqori bo'ladi, uning jismoniy va psixik jihatlari o'sadi hamda shaxs sifatida rivojlanishini belgilaydi.

Maktabgacha davrda shakllangan bilim va malakalar keyinchalik mактабда turli soha bilimlarini egallanishini ta'minlab boradi. L.S.Vigotskiy va D.B.Elkonin har bir psixologik yoshni quyidagi mezonlar bilan belgilashni taklif qiladi:

- rivojlanishning ijtimoiy holati, yoxud mazkur davrda bola va katta kishilar o'rtaсидаги о'заро муносабатлар шакли;
- mazkur davrda bolaga hos bo'lgan asosiy faoliyat turi;
- asosiy psixik xususiyatlar va shaxsiy sifatlar;

Rivojlanishdagi krizis, ya'ni o'sish davrlarni bir biridan ajratadigan, kattalar va bola o'rtaсидаги муносабатлarning qayta qurilishida namoyon bo'ladigan, hal qiluvchi davr go'daklik davri.

Gudaklik davr, bola hayotining birinchi yili, rivojlanishning yuqori sur'ati bilan harakterlanadi. Mazkur davrda sensor tizimlar: ko'rish, eshituv ,taktil sezgi jadal rivojlanadi. Mo'ljal olish harakatlarining oddiy shakllari: diqqatni jamlash, ko'z bilan chandalash, aylana harakatlar bajarish. Chaqaloqning dastlabki maqsadli ushslash harakati rivojlanadi. Narsalarni ushslash asosida manipulyativ harakatlar rivojlanadi. Manipulyasiyalar (oddiy harakatlar) asta sekinlik bilan predmetli harakatlarga aylanib boradi, bu esa predmetlarning sifat va hossalarini anglash va o'zlashtirishga hizmat qiladi. Bolaning dastlabki yoshidan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatlarini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Ilk yoshdagi bolaning kattalar bilan muomalasining eng oddiy turlari unda taassurotlarga bo'lgan ehtiyojini rivojlantiradi, tasavvurlarini shakllantiradi.

Go'daklik davrining ijtimoiy holati katta kishi va bolaning uzviy birligi bilan tavsiflanadi. Go'dakda boshqa insonlarga bo'lgan ehtiyoj rivojlanadi. Ona va bola hayotining birligi va uyg'unlashuvi, bolaning psixik rivojlanishiga katta ta'sir etadi hamda mazkur yoshiga hos faoliyati- bevosita hissiy muomalasining rivojlanishi bilan ifodalanadi. (Elkoning D.B., 1989).

Hayotining birinchi yili davomida bola tik turishni, birinchi yilining ohiriga kelib yurishni o'rganadi, bu o'z navbatda uning atrofdagi muxit bilan bo'lgan munosabatiga ta'sir etadi. Yurishni o'rganishi bolaning hayotida muhim bosqich hisoblanadi, chunki yurib, u atrofdagi narsalarni o'rganadi, mustaqillikga erishadi. Kattalar bilan birqalikda hamda ular yordamida bajarilgan hatti-harakatlar predmetlarining sifat va hossalarini

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

o'zlashtirishga qaratiladi hamda predmetli harakatlarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Kattalar bilan muloqoti nutqning shakllanishini ta'minlaydi: bola gugulaydi, huldiraydi, bиринчи so'zlarni gapirishga, kattalar nutqiga taqlid qilishga, nutqni tushunishga o'рганади.

Maktabgacha yoshdagi bola shahsining tarkib topishi uning fe'l-atvori shakllanishida ham o'z ifodasini topadi. Bola shaxsiy xulq-atvorini ijtimoiy xulq-atvor talablariga bo'ysundiradi, kattalar talablariga asosan o'z va boshqalarning xulqini tanqidiy baqolaydi. U hamma narsaga ham qodir emasligini hamda o'zining shaxsiy sifatlarini anglaydi. O'yin va mashg'ulotlarda bolada fe'l-atvorning irodaviy sifatlari paydo bo'ladi, ma'naviy ongni shakllantirish burch, adolat, qadr-qimmat va boshqa ijtimoiy tuyg'ularning paydo bo'lishi bilan ajralib turadi.

Zaif eshituvchini tekshirish jarayonida eshituvchidan foydalangan holda nutqni idrok etish imkoniyatlari aniqlanadi.

Zaif eshituvchining bиринчи darajasida, eshituvning pasayishi 50 db dan oshmaganda, bola 1-2 metrdan uzoq masofada gaplashish balandligidagi nutqni aniq qabul qila olgani sababli , nutqiy muomalaga kirisha oladi.

Zaif eshituvchining ikkinchi darajasida, ya'ni eshituv 50- 70 dbgacha pasayganda, so'zlashuv, nutq 1 mefrdan uzoq bo'lмаган masofadan qabul qilinganligi sababli, nutqiy muomala qiyinlashadi.

Zaif eshituvchining 3-darajasida, ya'ni eshituvning pasayishi 70 db dan ortganda, nutqiy muloqot buziladi, sababi, gaplashish balanligidagi so'zlashuv nutq qulq yonida ham noaniq idrok etiladi. Ma'lumki, eshituv holati 15-20 db ga pasayishi bilan, nutqni egallashda qiyinchiliklar vujudga keladi.

L.V.Neyman ushbu holatni «nornal eshituvchi va zaif eshituvchining chegara holati» deb hisoblaydi. L.V.Neyman tasnifiga ko'ra zaif eshituvchi va karlik o'rtasidagi shartli chegara 85 db doirasida bo'ladi. Eshituv holatining pasayishi karlik darajasida bo'lган holda, nutqni mustaqil ravishda (tabiiy) o'рганиш imkoniyati bo'lmaydi.

Idrok etilayotgan tovushlar chastotasining doirasiga qarab 4 guruhdagi kar bolalar farqlanadi:

1-guruh - eng past chasteotali tovushlarni idrok etadigan bolalar (125-250 Gs).

2-guruh - 500 Gs gacha bo'lган chasteotalami idrok etadigan bolalar.

3-guruh - 1000 Gs gacha bo'lган chasteotalami idrok etadigan bolalar

4-guruh - keng diapazondagi chasteotalami, ya'ni 2000 Gs va undan balandroq tovushni idrok etadigan bolalar.

Eshitish qoldiqlari minimal bo'lган (1-2 guruhdagi) kar bolalar yaqin masofadan qattiq tovushlami (baqiriq, parovoz qichqirig'i, nog'ora ovozi) idrok etishga qodir bo'ladilar. 3-4 guruhdagi kar bolalarning eshitish qoldiqlari sezilarliroq bo'ladi, shu sababli ular kichik masofadan turli chasteotalar ovozlar (turli musiqa asbob va o'yinchoqlar hayvonlarning qattiq hayqirishi, ayrim maishiy tovushlar: qo'ng'iroq, telefonning jiringlashi)ni idrok etib, farqlay oladilar. 3-4 - guruh kar bolalar tanish bo'lган bir nechta so'z yoki bo'g'lnarni farqlay oladilar.

Zaif eshituvning 1-darajasi - eshituvning pasayishi 40 db dan oshmaydi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Zaif eshituvning 2-darajasi - eshituvning pasayishi 40 db dan 55 db gacha bo'ladi.

Zaif eshituvning 3-darajasi - eshituvning pasayishi 55 db dan 70 db gacha bo'ladi.

Zaif eshituvchilikning 4-darajasi - eshituvning pasayishi 70 db dan 90 db gacha bo'lishi bilan ifodalanadi.

Eshituvning pasayishi 90 db dan o'tib ketsa, bunday holat «karlik» deb tafsiflanadi.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va mактаб та'лими тизимини yaratishda, bolalami saralash mezonlarini belgilashda, differensial ta'limni yaratishda, samarali ta'lim-tarbiya usullarini tanlashda R.M.Boskis (1963y) klassifikasiyasini muhim ahamiyat kasb etadi. L.S.Vigotskiyning bola psixikasining rivojlanishidagi birlamchi va ikkilamchi defektlar to'g'risidagi nazariyasiga asoslanib, R.M.Boskis, eshitishdagi nuqsonlarni farqlash bo'yicha pedagogik tasniflash mezonlarini ishlab chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X.J.KALBAEVA "MAKTABGACHA SURDOPEDAGOGIKA" 2007
2. Abdurahmonova Niginabonu Jahongir qizi
3. Z.Irohimova, M.G'aybullayeva. bolalar bog'chalari uchun dasturlar. Tevarak - atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, badiiy adabiyot.
4. Korkina M.B., Tsivilko M.A., Marilov V.V., Kareeva M.A. Praktikum po psixiatrii. Moskva, 1986